

---

Farg'ona shahrida "Ustozlar milliy forumi" doirasida tadbirlar o'tkazilmoqda. Xabaringiz bor, shu kunlarda "Ikkinchi ustozlar milliy forumi"ning hududiy bosqich uchrashuvlari mamlakatimizning barcha hududlarida qizg'in davom etmoqda.

"Ustozlar milliy forumi" doirasida Farg'ona shahridagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabida Farg'ona shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan yangi o'quv yiliga tayyorgarlik yuzasidan "Sifatli ta'lim - kuchli jamiyat" shiori ostida tadbir o'tkazildi.

Forumning asosiy maqsadi — umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, tizimli muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan istiqboldagi rejalarni belgilab olishdan iborat bo'ldi.

Forumda 800 nafardan ortiq ishtirokchilar, ya'ni bo'limxodimlari, umumta'lim maktab direktorlari hamda fanlar kesimida o'qituvchilar ishtirok etdilar.

2023-08-24 15:51:01